

Dastlabki ma'lumotlar

2020- yil yanvar-sentabr oylarida Sirdaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Bugungi kunda mamlakatning iqtisodiy holatini baholashda xizmatlar sohasining ko'lami, tarkibi va rivojlanish darajasi alohida o'rinni tutadi.

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi, milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omiliidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi, xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtini tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

2020- yil yanvar-sentabr oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasi—bu korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil turdag'i xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamnaviy infra tuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'rildi.

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumдорligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

Mazkur soha xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari, shuningdek, notijorat tashkilotlarini qamrab oladi.

**2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra,
xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

Ularning umumiy sonidagi ulushi

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari




2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 9,5 mingtaga yetdi yoki

Dastlabki ma'lumotlар jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi soninig 63,2 % ini tashkil etdi. 2019-yilning shu davriga nisbatan ularning o'sishi 21,0 % ga oshdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2301,6 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 318,1 mlrd. so'mga oshdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,9 % ni tashkil etdi.




Xizmatlar-iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiruvchi yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayriboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, jismoniy va yuridik shaxslarning xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun, xizmatlar sohasini hududlarda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishini ta'minlamasdan turib, viloyat iqtisodiyotining yirik tarmog'i sifatida xizmatlar sohasini jadal rivojlantirib bo'lmaydi.

Xizmatlarning umumiyligi Guliston shahrining ulushi eng ahamiyatli bo'lib, 58,2 % ni tashkil etadi. Bu aholining real daromadlari boshqa tumanlardan ko'ra yuqoriroq ekanligi bilan izohlanadi.

Dastlabki ma'lumotlar

**Tuman va shaharlар kesimida ko'rsatilgan
bozor xizmatlari tarkibi, % da
(2020- yil yanvar-sentabr oylarida)**



Eng katta ulush Guliston (58,2 %), Yangiyer (6,4 %) shaharlari, Sirdaryo (10,6 %) va Mirzaobod (4,4 %) tumanlarida qayd etildi.


Xizmatlar sohasining nisbatan past ko'rsatkichlari Shirin (3,0 %) shahri, Guliston (2,9 %), Sardoba (2,5 %), Oqoltin (2,1 %) tumanlarida kuzatildi.

Ma'lumot uchun: 2019- yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida Guliston shahrining ulushi 51,9 % ni tashkil etgan.

Oqoltin tumanining ulushi esa eng past – 2,3 % ni ko'rsatgan.

Dastlabki ma'lumotlar

**Tuman va shaharlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining
o'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan, % da
(2020- yil yanvar-sentabr oylarida)**



Ushbu davrda yuqori o'sish sur'atlari Guliston (118,7 %), Yangiyer (98,6 %) shaharlari, Mirzaobod (99,5 %) va Guliston (98,1 %) tumanlarida qayd etildi.

Nisbatan past o'sish sur'atlari Sayxunobod (59,8 %), Boyovut (87,4 %), Sardoba (89,5 %) va Oqoltin (95,2 %) tumanlarida kuzatildi.

Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarini hisobga olgan holda, viloyatning har bir iqtisodiy tumani va shaharlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishga bog'liqdir.

Ko'rileyotgan davrda resurslardan samarali foydalanish natijasida hududlar bo'yicha Guliston shahri ko'rsatilgan bozor xizmatlarining

Dastlabki ma'lumotlar
 umumiylajmi o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan ushbu hududda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 309,7 mlrd. so'mga oshdi va 1339,6 mlrd. so'mga yetdi.

**Tuman va shaharlar bo'yicha ko'rsatilgan
xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari
(2020- yil yanvar-sentabr oylarida)**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da	Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, ming so'm
Sirdaryo viloyati	2301,6	105,9	2702,7
<i>shaharlar:</i>			
Guliston sh.	1339,6	118,7	14721,1
Shirin sh.	69,1	98,9	3673,8
Yangiyer sh.	147,8	98,6	3397,3
<i>tumanlar:</i>			
Boyovut	74,2	87,4	569,5
Guliston	66,1	98,1	904,9
Mirzaobod	102,0	99,5	1380,1
Oqoltin	48,3	95,2	924,2
Sardoba	56,4	89,5	851,2
Sayxunobod	70,9	59,8	912,6
Sirdaryo	244,7	96,9	1898,5
Xovos	82,5	96,8	859,6

Dastlabki ma'lumotlar

Shu bilan birga, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Sirdaryo (244,7 mlrd. so'm), Mirzaobod (102,0 mlrd. so'm), Xovos (82,5 mlrd. so'm) tumanlari va Yangiyer (147,8 mlrd. so'm) shahrida qayd etildi.

Ma'lumki, xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Innovatsion texnologiyalarni joriy etish va an'anaviy xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha aniq maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, ishlab chiqarilgan bozor xizmatlari hajmini oshishiga olib keladi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari jami hajmining o'sishidagi asosiy omil moliyaviy xizmatlar 701,7 mlrd. so'mni (ko'rsatilgan xizmatlар jami hajmiga nisbatan ulushi 30,5 %), savdo xizmatlari 610,1 mlrd. so'mni (jami hajmiga nisbatan ulushi 26,5 %), transport xizmatlari 374,8 mlrd. so'mni (jami hajmiga nisbatan ulushi 16,3 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 132,4 mlrd. so'mni (jami hajmiga nisbatan ulushi 5,8 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar 76,4 mlrd. so'mni (jami hajmiga nisbatan ulushi 3,3 %) tashkil etdi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bozor munosabatlari, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning rivojlanishi sharoitida xizmatlar sohasida sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda.

Dastlabki ma'lumotlar

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan
xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari
(2020- yil yanvar-sentabr oylarida)**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	2301,6	105,9
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	132,4	113,9
Moliyaviy xizmatlar	701,7	147,8
Transport xizmatlari	374,8	100,8
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>354,7</i>	<i>101,6</i>
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	57,0	88,7
Savdo xizmatlari	610,1	88,6
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	51,6	92,9
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	76,4	82,6
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	37,4	98,6
Ijara xizmatlari	41,8	87,6
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	57,3	95,8
Shaxsiy xizmatlar	50,1	89,3
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	43,8	89,9
Boshqa xizmatlar	67,2	89,0

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan
bozor xizmatlarining jamiga nisbatan ulushi, % da
(2020- yil yanvar-sentabr oylarida)**



Eng yuqori ulush moliyaviy xizmatlar (30,5 %), savdo xizmatlari (26,5 %), transport xizmatlari (16,3 %), shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (5,8 %) qayd etildi.

Nisbatan yuqori bo'limgan ulush sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (1,6 %), ijara xizmatlari (1,8 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (1,9 %) va shaxsiy xizmatlarda (2,2 %) kuzatildi.

Dastlabki ma'lumotlar

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'r'in tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.


Savdo – bu tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohadir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2020- yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmiagi savdo xizmatlarining ulushi 26,5 % ni tashkil etib, bu 610,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Savdo xizmatlari tarkibi, % da (2020- yil yanvar-sentabr oylarida)

Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi umumiylajmiagi savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtadan uch qismiga aniqrog'i 68,6 % ga to'g'ri keladi.

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 25,7 % ga yetdi.



Dastlabki ma'lumotlar

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiyligi hajmidagi ulushi 5,7 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar – bu xizmatlarga banklarning moliyaviy vositachilik xizmatlari (moliyaviy lizing, kredit berish), shu jumladan, masofaviy bank xizmatlari (Internet-banking, mobil-banking), investitsiya fondlari va boshqa moliyaviy tashkilotlarning moliyaviy vositachiligi, moliya bozorlari (fond va valyuta birjalari) faoliyatining yordamchi moliyaviy vositachilik xizmatlari va boshqa moliyaviy xizmatlar kiradi.

Moliyaviy xizmatlar (2020- yil yanvar-sentabr oylarida)

2020- yil yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 701,7 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 250,1 mlrd. so'mga oshdi. Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 47,8 % ni tashkil etdi.



Dastlabki ma'lumotlar

Zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etish uchun shart-sharoitlar yaratishda, innovatsion bank texnologiyalarining joriy etilishi orqali chakana xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan "raqamli" banklar va ularning bo'linmalari faoliyatini tashkil etish, masofadan turib bank xizmatlarini takomillashtirish va to'lov tizimini yanada rivojlantirish, moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da (2020- yil yanvar-sentabr oylarida)

Moliyaviy xizmatlar umumiylajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 94,8 % ni tashkil etadi. Joriy davrda sug'urta xizmatlarning ulushi 4,0 % oralig'ida qayd etildi.



Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning umumiylajmaviy xizmatlar hajmidagi ulushi yuqori ko'rsatkichga ega emas va u 1,2 % ni tashkil etadi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Dastlabki ma'lumotlar


Ma'lumki, fuqarolarni sifatli va arzon ta'lim bilan ta'minlash sezilarli darajada jamiyatning rivojlanishini va uning kelajagini belgilovchi vazifadir.

Mamlakatimizda bu soha nafaqat davlat siyosatining eng muhim va hal qiluvchi yo'nalishlaridan biri sifatida qaralibgina qolmay, balki ulkan yutuqlarni ham namoyish etmoqda.

Bugungi kunda o'quv jarayonining sifati va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, darsliklar va yangi avlod metodik materiallari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

(2020- yil yanvar-sentabr oylarida)



Dastlabki ma'lumotlar


Bugun respublikaning barcha hududlarida ixtisoslashtirilgan ilmiy va amaliy tibbiyot markazlarida kardiologiya, jarrohlik, ko'z mikroxirurgiyasi, urologiya, terapiya va tibbiy reabilitatsiya, endokrinologiya, pulmonologiya va ftiziatriya, akusherlik va ginekologiya, pediatriya va boshqa sohalarda yuqori sifatli tibbiy xizmatlar ko'rsatilmoqda.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi - bu sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, tibbiy haydovchilar komissiyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya profilidagi muassasalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2020- yil yanvar-sentabr oylarida)

2020- yil yanvar-sentabr oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 2,2 mlrd. so'mga ko'payib, 37,4 mlrd. so'mga yetdi. Xizmatlar umumiyligi hajmida uning ulushi 1,6 % ni tashkil qildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 98,6 % ni tashkil etdi.




Dastlabki ma'lumotlar

Sirdaryo viloyatida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining doimiy o'sishi kuzatilmogda. 2020- yil yanvar-sentabr oylarida 2702,7 ming so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 329,8 ming so'mga oshdi va o'sish sur'ati 104,0 % qayd etildi.

Aholi jon boshiga to'g'ri kelgan eng kichik hajm Boyovut (569,5 ming so'm), Sardoba (851,2 ming so'm) va Xovos (859,6 ming so'm) tumanlarida kuzatildi.

2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, 2020- yil yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Guliston (116,8 %), Shirin (97,9 %) shaharlarda va Mirzaobod tumanida (97,0 %) qayd etildi.

2020- yil yanvar-sentabr oylarida tuman va shaharlар bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar





Dastlabki ma'lumotlar

Kelajakda xizmatlar sohasini har tomonlama rivojlantirish, samarali bandlikni ta'minlash va aholi turmush darajasini oshirishning dolzARB masalasidir.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining munosib hayot sifatini ta'minlash ko'rsatkichidir, chunki xizmatlar bozori rivojlanishiga ta'sir qiluvchi hal qiluvchi omil, aholining real daromadlari va turmush darajasining o'sishi hisoblanadi.

Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Tel: (67) 236-86-36